



“TBC Bank” ATBning foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘lar bilan operatsiyalarni amalga oshirganda qo‘shimcha funksiyalardan FOYDALANISH QOIDALARI

1. Atamalar va ta’riflar

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi).
Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘i	Tegishli shartnomalar shartlariga muvofiq foizlar hisoblangan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i va foizlar hisoblangan muddatli depozit hisobvarag‘i.
Bank mijozi	Bankda hisob raqami ochilgan jismoniy shaxs.
“Depozitni avtomat ravishda to‘ldirish” qoidasi	Mijozga pul mablag‘larini jamg‘arma hisobvarag‘iga avtomat ravishda o‘tkazish imkoniyatini beradigan foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘laridan foydalanish doirasida qo‘shimcha funksiya.
TBC UZ	TBC UZ mobil ilovasi

2. Umumiy qoidalar

- 2.1. Mazkur qoidalar va qo‘shimcha funksiyalar Mijozga Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘idan foydalanishda/uni to‘ldirishda qulaylik va moslashuvchanlikni ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan. “TBC Bank” ATBning foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘lar bilan operatsiyalarni amalga oshirganda qo‘shimcha funksiyalardan foydalanish qoidalari (keyingi o‘rinlarda “Qoidalar” deb yuritiladi) Bank Mijozi tomonidan qo‘shimcha funksiyalardan foydalanish shartlari va tartibini belgilaydi.
- 2.2. Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan – www.tbcbank.uz
- 2.3. Mazkur qoidalarga o‘z roziligini bildirgan taqdirda, Mijoz avtomat ravishda ushbu Qoidalarda tavsiflangan barcha qo‘shimcha funksiyalardan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

3. “Depozitni avtomat ravishda to‘ldirish” qoidasi

- 3.1. Ushbu qoida mijozga TBC UZ mobil ilovasiga biriktirilgan istalgan kartadan Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘iga pul mablag‘larini avtomat ravishda o‘tkazish uchun qo‘shimcha shartlarni belgilash imkonini beradi.
- 3.2. Mijoz tranzaksiya amalga oshirilgan vaqtda u tomondan qo‘shimcha xatti-harakatlarsiz avtomat ravishda Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘iga o‘tkaziladigan pul miqdorini hamda kalendar sanasini tanlash huquqiga ega. Mijoz Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘ini to‘ldirish bo‘yicha avtomat ravishda tranzaksiya amalga oshiriladigan haftaning ma‘lum bir kunini yoki oyning kunini tanlashi mumkin. Tanlangan summa tanlangan sanada foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘iga to‘liq o‘tkaziladi. Agar tanlangan kartada Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘iga avtomat ravishda o‘tkazish uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, u holda tanlangan kartaning balansida yechib olish uchun yetarlicha mablag‘ bo‘lmaguncha mazkur Qoida qo‘llanilmaydi. Agar tanlangan kartada 5 kalendar kun ichida Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘iga o‘tkazish uchun yetarli pul miqdori bo‘lmasa, bu holda Qoida o‘chiriladi.
- 3.3. Mijoz TBC UZ mobil ilovasida biriktirilgan istalgan kartasini tanlash huquqiga ega va undan

- pul mablag‘lari Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘iga avtomat ravishda o‘tkaziladi.
- 3.4. Mijoz Qoidalar amal qilinishining boshlanish sanasini TBC UZ ilovasida tekshirishi mumkin.
 - 3.5. Mijoz “Depozitni avtomat ravishda to‘ldirish” qoidasini istalgan vaqtda TBC UZ ilovasining “Depozitlar” bo‘limidagi Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘i boshqaruv menyusida to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega. Bunday holatda ushbu funksiya Mijoz tomonidan tiklanmaguncha kartadagi pul mablag‘lari Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘iga avtomat ravishda o‘tkazilmaydi.
 - 3.6. Mijoz istalgan vaqtda TBC UZ ilovasining “Depozitlar” bo‘limidagi Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘ini boshqarish menyusida “Depozitni avtomat ravishda to‘ldirish” qoidasini o‘zgartirish yoki o‘chirish huquqiga ega.
 - 3.7. TBC UZ mobil ilovasida Mijoz ochgan istalgan Foizlar hisoblangan depozit hisobvarag‘ini to‘ldirish uchun Mijoz “Depozitni avtomat ravishda to‘ldirish” qoidasini tanlash huquqiga ega.

4. Boshqa shartlar

- 4.1. Mazkur Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan - www.tcbank.uz
- 4.2. Mijozlar yuqoridagi (havola orqali) veb-saytdagi tegishli kiritilgan o‘zgartirishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda ko‘rib borishlari shart.
- 4.3. Bank Mijozni ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan qo‘shimcha funksiyalardan foydalanmaslikka haqli.